

Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-mart

Raqamlar:


- 2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi - 1512,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 119,9 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 479,5 ming.so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xima-xil bo'lib, bular savdo va transport xizmatlaridan tortib moliyaviy, sug'urta va turli xil vositachilik xizmatlaridan iborat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Natijada, viloyatimizda 2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 1512,2 mlrd. so'mni tashkil etdi .

Bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo xizmatlari, transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, shaxsiy va boshqa xizmatlarda kuzatilmoqda.


2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar tarkibi, % da



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush - savdo xizmatlari (33,7 %), transport xizmatlari (22,9 %), moliyaviy xizmatlar (10,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,6 %), shaxsiy xizmatlar (3,9 %), kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (3,7 %) tashkil qildi.

Xizmatlar jamiyat hayotining muhim sohasi bo'lib, hayot darajasini oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Bugungi kunda xizmat amaliyotida xizmat faoliyatini tashkillashtirishning o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari belgilangan.

Xizmatlar ishlab chiqarish hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm




Xizmatlar sohasida xizmat hajmining oshishi bir qator omillarning ta'siri bilan izohlanadi, jumladan: bozorda yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi, masalan: kredit kartalari orqali to'lovlar, Internet savdo, yangi savdo markazlari, mehmonxonalarning tashkil etilishi, ta'lim xizmatlarini kengaytirish, dam olish sohasidagi tanlovning kengayishi shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib respublika iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.

2018 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da

Qashqadaryo viloyati 104,2 %



2018 yil yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan ta'lim sohasidagi xizmatlar (122,1 %), moliyaviy xizmatlar (119,9 %), ijara xizmatlari (119,6 %), boshqa xizmatlar (114,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (113,9 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (105,1 %) kabi xizmatlarning o'sish sur'atlari yuqori sur'atlarda oshdi.


**2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyat	1512,2	104,2
Qarshi sh.	676,8	103,3
Shahrisabz sh.	41,6	-
G'uzor	58,5	100,4
Dehqonobod	35,3	99,6
Qamashi	52,4	98,6
Qarshi	64,7	100,1
Koson	83,5	99,7
Kitob	69,4	100,0
Mirishkor	29,2	99,1
Muborak	63,4	99,8
Nishon	48,2	99,9
Kasbi	38,6	98,1
Chiroqchi	80,5	100,6
Shahrisabz	106,7	100,2
Yakkabog'	63,4	99,4

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (676,8 mlrd.so'm), Shahrisabz (106,7 mlrd.so'm), Koson (83,5 mlrd.so'm), Chiroqchi (80,5 mlrd.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Mirishkor (29,2 mlrd.so'm), Dehqonobod (35,3 mlrd.so'm), Kasbi (38,6 mlrd.so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.


2018 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da



Hududlar bo'yicha xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (44,7 %), Shahrisabz (7,1 %), Koson (5,5 %), Chiroqchi (5,3 %) tumanlari egallaydi.

2018 yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 479,5 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 102,3 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida 2525,4 ming so'm qayd etilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,0 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga xizmat ko'rsatishning eng past ko'rsatkichi Qamashi tumanida kuzatildi 201,6 ming so'm, o'sish sur'ati esa 96,8 % ni tashkil etdi. Bu mazkur tumanda xizmatlar hajmi pastligi hamda aholi ko'pligi bilan izohlanadi.